

**YOSHLARDA ILM-FANGA VA TA'LIM OLISHGA INTILISH
TUYG'USINI KUCHAYTIRISHDA ISLOM DININING TARBIYAVIY
AHAMIYATI**

Arofat Isakova Maxkamovna

Qo`qon davlat pedagogika instituti o`qituvchisi

Abdurashidova Fazilat Farhod qizi

Haydarova Umidaxon Akmaljon qizi

Q`oqon davlat pedagogika instituti talabalari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7927626>

Annotatsiya: mazkur maqolada yoshlarning ilm-fanga va ta'lim olishga intilish tuyg'usini kuchaytirishda islom dinining tarbiyaviy ahamiyati va ta'lim tizimidagi islohatlar borasida Prezidentimiz Sh,Mirziyoyevning tashabbuslari yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** ilm, fan, islom, din, ta'lim, tuyg`u, intilish, ta'lim oluvchi.

Аннотация: в данной статье освещается воспитательное значение ислама в укреплении стремления молодежи к науке и образованию и инициативы Президента Ш.Мирзиёева относительно реформ в системе образования.

Ключевые слова: знание, наука, ислам, религия, образование, чувство, стремление, учащийся.

Annotation: this article highlights the educational value of Islam in strengthening the aspirations of young people for science and education and the initiatives of President Sh. Mirziyoyev regarding reforms in the education system.

Key words: knowledge, science, Islam, religion, education, feeling, aspiration, student.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev "... yoshlarda ilm-fanga va ta'lim olishga intilish tuyg'usini kuchaytirish, barcha jamiyatlarda islom qadriyatlari va madaniyatini to'g'ri anglash hamda qabul qilish, dunyoning barcha xalqdariga islom dinining haqiqiy mazmun-mohiyatini yetkazish uchun muhimdir. Shuningdek, bugungi kunda xalqaro miqyosda konfessiyalar, millatlar va madaniyatlararo muloqotni yo'lga qo'yish, tinchlik va totuvlikka erishishda ham muhim ahamiyat kasb etadi [1]", deb yoshlarni ilm-ma'rifatga va bu borada muqaddas dinimiz bo'lgan islom dinining tarbiyaviy ahamiyatiga alohida urg'u berganlar.

Mustaqil O'zbekistonning mustaqilligini abadiy saqlash, uni kelajakdagi mavqei, jahonda o'z o'rniga ega bo'lishi ko'p jihatdan O'zbekiston yoshlariga bog'liq. Shu sababli yoshlarga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bizning



yoshlarimizni dunyo yoshlari qatorida bellashuvga, raqobatga bardoshli bo'lishlari uchun Pespublikamizda ta'lim sohalarida alohida ishlar olib borilmoqda. Ya'ni yoshlarni ilm-fanga bo'lgan qiziqishlari kuchaytirilmoqda, ta'lim olishga bo'lgan tuyg'ularini qondirish maqsadida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" davlat Dasturida ko'zda tutilgan 30 ta yangi maktab qurish, 320 ta maktabni ta'mirlash va moddiy-texnik bazasini yaxshilash maqsadida byudjetdan 2 trillion so'm ajratilishi, sohada yagona "elektron ta'lim" tizimini joriy etishga kelgusi 2 yilda 250 milliard so'm yo'naltirish, boshqa tumandagi olis maktabga borib, dars beradigan o'qituvchilar oyligiga 50 foiz, boshqa viloyatga borib ishlasa — 100 foiz ustama haq to'lash, shuningdek O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi asosida ta'lim sohasidagi intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalarning amaliyotga tadbiri fikrimizning isobotidir. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi yoshlarda ilm-fanga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish maqsadida ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi. Bugungi kunda yoshlarda ta'lim olishga intilish tuyg'usini shakllantirishda yangi-yangi oliy o'quv yurtlari, dunyodagi yetakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Misol uchun, so'nggi 5 yilda mamlakatimizda 47 ta yangi oliy ta'lim muassasasi, jumladan, xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliy o'quv yurtlarining soni 125 taga yetdi. Davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yilyapti. Aholi fikrini o'rgangan holda, sirtqi va kechki ta'lim shakllari qayta tiklandi, qabul kvotalari oshirilyapti. Maktab bitiruvchilarini oliy ta'limga qamrab olish darajasi birgina misol tariqasida 2016-yilgi 9 foizdan 2020-yilda 25 foizga yetgan, bugungi kunda bu ko'rsatkich yanada ko'tarilgan. Yoshlarda ilm-fanga bo'lgan qiziqishlarini hisobga olgan holda ta'lim tizimidagi uzviylikni kuchaytirish maqsadida 65 ta akademik litsey oliy o'quv yurtlari





tasarrufiga o'tkazilishi, shuningdek, 187 ta texnikum ham o'z yo'nalishi bo'yicha turdosh oliygoh va tarmoq korxonalariga birlashtirilishi ham amalga oshirildi. Demak, bugungi kunda yoshlarda ilm-fanga va ta'lim olishga intilish tuyg'usini kuchaytirishni hisobga olgan holda ta'lim sohasidagi islohotlar o'zining dolzarbligi bilan yana-da keng ko'lamda davom ettirilishi davr talabidir. Lekin har qanday davr talabi o'sha yurtning milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan o'lchanadi. Yurtboshimiz "Yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir [2], deganlar. Zero, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimiz asosi bu-bizning islom dinimiz. Xalqimiz islom dinini qabul qilgan qunidan boshlab, uni muqaddas din ekanligiga imon keltirishgan. Islom dinida millatidan, elatidan, tanasining rangidan qat'iy nazar, inson insonligi uchun ulug'lanadi. Islomda millatchilik, bir-birini kamsitish, talon-tarojlik, irqchilik, razolat, kibr-havo, adovat, xasad, xiyonat, zulm kabi illatlar qoralangan. Islom dini har qanday millatchilik kayfiyatidan yuqori turadigan olamshumul ta'limot bo'lib, barcha millatlarni birlashtirib, teng, do'st, yoru-birodar qilib, tinch-omon yashashlarini o'qtirib kelgan.

Har bir ishning ilmini bilish, uni oxiriga yetkazish va mukammal ado etishga asosiy omil bo'ladi. Mo'tabar manbalarda mashoyixlarimiz: «Ilmning afzali hol ilmini bilmokdir», - deb ta'kidlaganlar. Bundan hamma ilmlarni o'rganish farz bo'lmasligini tushunish mumkin. Balki, hozir bajarilishi lozim bo'lgan amalning ilmini bilmog'i insonga buyuriladi. Shunda qiladigan ishi nuqson va kamchiliklardan holiy va ilm bilan bo'lgani sababidan mukammal bo'ladi. Shu bois islom dinida ham ilm yuksaklangan, Zero, "Ilm" so'zi Qur'oni karimda 765 marotaba takrorlanadi. Alloh o'z Kalomida marhamat qiladi: "Alloh sizlardan imon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni (baland) daraja (martaba)larga ko'tarur...". (Mujodala, 11-oyat).

Xulosa o'rnida, ilm olijanob va savob ish. Ilm dinning asosini, ustunini tashkil etadi. Ilm hikmat, ilm fazilat, ilm dinning rivojini, uning tarqalishini ta'minlaydi. Zero, hozirgi O'zbekiston hududida ilm-ma'rifat, madaniyat va ma'naviyat rivojlanishida islom ijobiy rol o'ynagan. Islom, ayrimlar tushunganidek, faqat aqida emas, avvalo ma'rifat ilmidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent - «O'zbekiston» - 2017y
2. Shavkat Mirziyoev. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati - O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VIII s'ezdidagi ma'ruza. 2016 yil 19 oktyabr





3. Feruza Aminovna Turakulova. Humanity pedagogy and technology of holistic approach. Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915. Vol. 10, Issue 12, Dec. (2022). 1699

4. Isakova Arofat Maxkamovna. Farzandlar tarbiyasida sog'lom oila muhiti. Results of National Scientific Research International Journal 2023 Volume 2| Issue 1 SJIF- 4.431 ISSN: 2181-3639. 417-b

